

GRADATSIYANING STILISTIK FUNKSIYASI (ENAXON SIDDIQOVA SHE'RLARI MISOLIDA)

Dilnavoz Abdurahimova

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gradatsiya haqida ma'lumot berilgan. Uning matn tarkibidagi semantik xususiyati, stilistik vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: gradatsiya, zinapoya, ifodalilik, klimans, antiklimans, intonatsiya, kulminatsiya

Stylistic function of gradation (in the example of Enakhon Siddikova's poems)

Dilnavoz Abdurahimova

Student of the Faculty of Philology of Fergana State University

Abstract: This article provides information about gradation. Its semantic features and stylistic functions in the text are analyzed.

Key words: gradation, staircase, expressiveness, climactic, anticlimactic, intonation, climax

Gradatsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, zinapoya (ifodalilikning o'sib borishi yoki tushib ketishi) manosini bildiradi. Gradatsiya narsa, belgi, xususiyat, harakatni biri-biridan kuchliroq yoki kuchsizroq ma'no ottenkali sinonimlar va so'zlar vositasida kuchaytirib yoki pasaytirib borish orqali tasvirlashdir. Bunda tasirchanlik birin-ketin kuchayib yoki pasayib boradi. Agar ta'sirchanlik kuchayib borsa klimans, pasayib borsa antiklimans boladi. Sintaktik konstruksiyada komponentlarning keyingilari oldingisiga qaraganda ahamiyatliroq, muhimroq tushuncha yoki mazmunni ifodalasa, bunday konstruksiya ko'tariluvchi gradatsiya hosil qiladi; agar komponentlarning keyingilari oldingisiga nisbatan ahamiyatsizroq, uncha muhim bo'lmagan tushunchalarni ifodalasa, u vaqtda pasayuvchi gradatsiya yuzaga keladi. Bunday usuldan tarkibida uyushgan komponentlar mavjud bo'lgan sintaktik konstruksiyalarda foydalaniladi. Ularda intonatsiya asta-sekin ko'tarila boradi va kulminatsion nuqtaga yetadi:

U silkindi, qalqiy boshladi,

Dunyo unga qilmadi shafqat.

Qushchalarin kiftida uchirib,

Qulay boshlar u sho'rlik daraxt.

(Enaxon Siddiqova "Begim onam, sabr daraxtim")

Gradatsiyada mazmunan va funksiyasi jihatidan o'zaro yaqin bo'lgan nutq birliklarining uyushib kelishi kuzatiladi, buning natijasida fikr tadrijiy rivojlantiriladi va kuchaytiriladi. Gradatsiyadan ko'proq poetik nutq koprinishlarida foydalaniladi. O'zbek tilida qo'shma gap komponentlari inversiyasi, asosan, badiiy nutq stiliga xos bo'lgan matnlar tilida faol qo'llanuvchi stilistik usuldir. Keyingi paytlarda ayrim konstruksiyalarning rus tilidan aynan tarjima qilinishi natijasida rasmiy nutq stiliga oid bo'lgan yuridik hujjatlar tilida komponentlari inversiya hodisasiga uchragan qo'shma gaplar ham qo'llana boshladi. Lekin buni o'zbek tili uchun normal holat deb bo'lmaydi.

Inversiyada qo'shma gap komponentlarining sintaktik aloqalari va semantik munosabatlari o'zgarmaydi, avval qanday boplsa, keyin ham shundayligicha qoladi:

Buyuk yo'lga chiqding!

Olis bir yo'lga

Bo'lsaydi she'rlarim oddiy yo'olchiroq!

(Enaxon Siddiqova Shoirlik")

O'zbek tilida ega, kesim, aniqlovchi ergash gapdan boshqa hamma ergash gap turlari inversiyasida uchraydi. Qo'shma gapda mazmunan birinchi o'ringa qo'yilgan, birinchi planda aytilishi lozim bo'lgan fikrni ifoda etuvchi komponent oldin qo'llanadi va ma'lum bir stilistik maqsad ko'zda tutilgani uchun ham, uslubiy jihatdan o'zini oqlaydi:

Qirmiz olmalarni oqizardi soy,

Ortimdan rashk ila ergashardi oy,

Qani u gul yoshlik, qani u chiroy,

Ko'rklar unutti-ya, meni, onajon!

(Enaxon Siddiqova “Mohtob bir tilimdir...”)Yolgonlar osadilar,

Yomonlar o'sadilar.

Fozillari sukutda,

Nodonlar o'sadilar. (Enaxon Siddiqova)

Og'zaki nutqda qisqalikka intilish kuchli. Shuning uchun bunday nutqda elliptik gaplarga ehtiyoj ko'proq seziladi. Bu, albatta, elliptik gaplarning ixchamligi, mazmunan lo'ndaligi va qulayligi tufaylidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.А. Мамажонов У. Махмудов. Услужий воситалар. “Фарғона” - 1996
- 2.А. Мамажонов Қўшма гап стилистикаси. “Фан” нашриёти, 1990 й.
- 3.Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. –Т., 1958. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Т.: Фан, 1975.
- 4.Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент, 5.1984. Enaxon Siddiqova Sizni dedim. Toshkent ADABIYOT, 2021